

***Habibullayeva Halima Farxod qizi***

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi*

*Islomshunoslik mutaxassisligi magistranti*

[\*halimahabibullayeva@gmail.com\*](mailto:halimahabibullayeva@gmail.com)

*Telefon raqami +998935678923*

***Ilmiy rahbar: Agzamova Muhabbatxon Mirtoxirovna***

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi*

*Islomshunoslik va islom sivilizasiyasini*

*o'rganish ICESCO kafedrasini mudiri dosent v.b.*

***Annotatsiya.*** *Islom dinining mohiyatida insonni ma'naviy kamolot darajasiga yetkazish muhim ahamiyatga ega bo'lib, Qur'on oyatlari orasida tarbiyaga chorlovchi oyatlarning mavjudligi, hadislarda insonning nafsini poklash va axloqini sayqallashga qaratilgan mavzular katta e'tibor berilganligi fikrimizni isbotlaydi. Tazkiyatun nafs tushunchasi va "tazkiya"ning Qur'onda kelgan o'rinlari, nafsning ma'nolari va uning darajalari ushbu maqolada o'z aksini topadi.*

***Kalit so'z:*** *tazkiyatun nafs, Qur'on, hadis, nafs mutmainna, nafs lavvoma, nafs ammora.*

Nafsnı poklash va axloqni sayqallash dastavval alohida ilm shaklida bo'lmagan, balki, Rasululloh (s.a.v.) va sahobalarning hayot tarzida o'z aksini topgan. Tobeinlar davriga kelib ko'plab ilmlar qatorida "tazkiyatun nafs" ilmi borasida ham alohida kitoblar, asarlar ichida alohida boblar yozila boshlandi. Bu borada Amr ibn Muhammad Johizning (vaf. 92/868 y.) "Tahzibul axloq" asari eng birinchi asarlardan deb qaraladi<sup>1</sup>. III/IX asrning ikkinchi yarmida Ibn Ishoq Kindiy (vaf. 256/873 y.) "Qovlun fin nafs" asari, IV/X asrlarda yozilgan Hakim

<sup>1</sup> Ibn Usmon Amr ibn Muhammad Johiz. Tahzibul axloq. – Bayrut: "Dorus sahoba lit turos", 1989. – B. 70.  
[www.tadqiqotlar.uz](http://www.tadqiqotlar.uz)

Termiziyning “Kitabuz zavq”, Abu Nasr Farobiyning “Adabul mulukiyya” kitoblari nafsni poklash borasida yozilgan mo‘tamad asarlar hisoblanadi.

“Tazkiya” تَزْكِيَةٌ so‘zi arab tilidagi “zakaun” زَكَاةٌ masdaridan olingan bo‘lib, lug‘aviy jihatdan “poklash”, “o‘shish”, “ziyodalik” kabi ma‘nolarni anglatadi. Istilohiy jihatdan tazkiya bu insonning ruhiy tarbiyasidir. Ruhiy tarbiya amaliy jihatdan poklanish va qalbning to‘liq tozalanishi bilan bo‘ladi. Tazkiyatun nafsning maqsadi asl fitratga, insonning insoniyligi bo‘lmish unsurlarga qaytish hisoblanib, bu yo‘l bilan insonning nafaqat o‘z hayoti, balki jamiyat ham isloh bo‘lib boradi.

“Tazkiya” arabcha atama sifatida تَزْكِيَةُ النَّفْسِ “tazkiyatun nafs”ga ishora o‘laroq qo‘llaniladi, “nafsni poklash” yoki “poklanish” ma‘nosini bildiradi. Nafsning o‘z tabiati hisoblangan أَمَارَةٌ بِالسُّوءِ ammoralik (yomonlikka buyuruvchi) holatidan turli ma‘naviy bosqichlar orqali o‘tib, komil inson darajasiga chiqish jarayoni nazarda tutiladi. Nafsni poklashning asosi Qur‘oni Karim va sunnatga asoslangani sababli musulmon inson avvalo shariat hukmlariga bo‘ysinib va sahih hadislarga ergashish orqali nafsini poklaydi. Nafsini poklagan insonga nisbatan زَكِيٌّ “zakiy” deb ataladi.

“Tazkiya” تَزْكِيَةٌ kalimasi Qur‘onda ko‘plab o‘rinlarda kelgan, ushbu oyatlarda masdari “zakaun” bo‘lgan kalimalar o‘n uch ma‘noda kelganini ko‘rish mumkin :

1. “Nur” surasining 28-oyatida naf, foyda so‘zlariga yaqin ma‘noda kelgan: “لَكُمْ أَزْكَىٰ هُوَ” “o‘sha siz uchun eng toza (foydali) yo‘ldir”<sup>2</sup>.

2. Halol ma‘nosida “Kahf” surasining 19-oyatida kelgan: طَعَامًا أَزْكَىٰ أَيُّهَا فَلْيَنْظُرْ “U pokroq (halol) taomlarga qarasin”<sup>3</sup>. Go‘zallik va latofat ma‘nosida “Kahf” surasi 74-oyatida kelgan bo‘lib: “نَفْسٍ بَغَيْرِ زَكِيَّةٍ نَفْسًا أَقْتَلْتُ” “Hech kimni o‘ldirmagan bir begunoh jonni o‘ldirding-a?”<sup>4</sup>

<sup>2</sup> Shayx Abdulaziz Mansur. Qur‘oni Karim ma‘nolari tarjimasi. – Toshkent: “Toshkent islom universiteti” nashriyoti, 2001. – B. 353.

<sup>3</sup> Shayx Abdulaziz Mansur. Qur‘oni Karim ma‘nolari tarjimasi. – Toshkent: “Toshkent islom universiteti” nashriyoti, 2001. – B. 295.

<sup>4</sup> Shayx Abdulaziz Mansur. Qur‘oni Karim ma‘nolari tarjimasi. – Toshkent: “Toshkent islom universiteti” nashriyoti, 2001. – B. 301.

3. Taqvodor, solihlik ma'nosida “Kahf” surasining 81-oyatida kelgan: “أَنْ زَكَاةً مِنْهُ خَيْرًا لِّرَبُّهُمَا يُبَدِّلُهَا” “Shu sababdan, ularga Parvardigorlari u (bola)dan ko'ra pokizaroq (taqvodorroq) (boshqa bir bolani) badal (evaz) qilib berishini istadik”<sup>5</sup>.

4. Payg'ambarlik va risolat ma'nosida ham kelgan bo'lib, bunga “Maryam” surasi 19-oyati misol bo'ladi: “زَكِيًّا غُلَامًا لَّكَ لِأَهَبَ” “Men senga faqat pokiza (payg'ambar) o'g'il hadya qilish uchun...”<sup>6</sup>.

5. Duo va ibodat qilish ma'nolarida “Maryam” surasining 31-oyatida kelgan. “وَالزَّكَاةَ بِالصَّلَاةِ وَأَوْصَانِي” “Menga namozni va zakotni ado etishni buyurdi”<sup>7</sup>.

6. Fahsh ishlardan, gunohlardan saqlanish ma'nosida “Nur” surasining 21-oyatida kelgan. “أَبَدًا أَحَدٍ مِّنْ مِنْكُمْ زَكَاةً” “Agar sizlarga Allohning fazli va rahmati bo'lmaganda edi, sizlardan biror kishi(tuhmatdan, gunohdan) pok bo'lmas edi”<sup>8</sup>.

7. Xizmat qilishga yuzlanish ma'nosida “Fotir” surasi 18-oyatida kelgan. “الْمَصِيرُ اللَّهُ وَإِلَىٰ لِنَفْسِي يَتَزَكَّىٰ فَإِنَّمَا تَزَكَّىٰ وَمَنْ” “Kimki (gunohdan) poklansa (o'zini gunohdan sqlashga xizmat qilsa), u faqat o'zi uchun poklangan bulur. Qaytish faqat Alloh huzuridadir”<sup>9</sup>.

8. Iymon va ma'rifat ma'nosida “Fussilat” 7-oyatida kelgan. “يُؤْتُونَ لَا الَّذِينَ” “Ular zakot bermaydigan va o'zlari oxiratga ishonmaydigan kishilardir”. Ushbu oyatning tafsirida zakot bermaydigan kishilarni iymon keltirmaydiganlarga tenglashtirilgan bo'lib, “zakaaun” kalimasining yana bir ma'nosi ochib berilgan.

9. Tavhid va shahodat keltirish ma'nosida “Abasa” surasining 7-oyatida kelgan. “يَزَكَّىٰ أَلَا عَلَيْكَ وَمَا” “Holbuki, uning o'z kufridan poklanmasligi Sizga zararli emas edi”<sup>10</sup>. Kufrdan tavhid, Allohning yakka yagonaligida iymon keltirish bilan poklanilgani sababidan, ushbu oyatdagi poklanish tavhid ma'nosida kelgan.

---

<sup>5</sup> Shayx Abdulaziz Mansur. Qur'oni Karim ma'nolari tarjimasi. – Toshkent: “Toshkent islom universiteti” nashriyoti, 2001. – B. 302.

<sup>6</sup> Shayx Abdulaziz Mansur. Qur'oni Karim ma'nolari tarjimasi. – Toshkent: “Toshkent islom universiteti” nashriyoti, 2001. – B. 306.

<sup>7</sup> Shayx Abdulaziz Mansur. Qur'oni Karim ma'nolari tarjimasi. – Toshkent: “Toshkent islom universiteti” nashriyoti, 2001. – B. 307.

<sup>8</sup> Shayx Abdulaziz Mansur. Qur'oni Karim ma'nolari tarjimasi. – Toshkent: “Toshkent islom universiteti” nashriyoti, 2001. – B. 352.

<sup>9</sup> Shayx Abdulaziz Mansur. Qur'oni Karim ma'nolari tarjimasi. – Toshkent: “Toshkent islom universiteti” nashriyoti, 2001. – B. 436.

<sup>10</sup> Shayx Abdulaziz Mansur. Qur'oni Karim ma'nolari tarjimasi. – Toshkent: “Toshkent islom universiteti” nashriyoti, 2001. – B. 585.

10. Oqlash va ulug'lash ma'nosida "Najm" surasining 32-oyatida kelgan. "فَلَا" "أَنْفُسَكُمْ تُزَكُّوْا" "Bas, o'z'laringizni oqlamay qo'yaveringiz"<sup>11</sup>.

11. Poklik, tozalik ma'nosida "Shams" surasi 9-oyatida kelgan. "مَنْ أَفْلَحَ فِدَّ" "رَزَقَهَا" "(Mazkurlar bilan qasamyod etamanki) haqiqatan, uni (nafsni) poklagan kishi najot topur"<sup>12</sup>.

12. Robblikni da'vo qilishdan qaytarish ma'nosida "Naziat" surasining 18-oyatida kelgan. "تَزَكَّىٰ أَنْ إِلَىٰ لَكَ هَلْ فَفُلٌ" "Bas, (unga) ayt, sening (kufrdan) poklanishga xohishing bormi?"<sup>13</sup> Ushbu oyat Alloh taolo Muso (a.s.)ga Firavning oldiga borishini va unga xudolikni da'vo qilishidan qaytarishni buyurgani haqida nozil bo'lgan bo'lib, "تَزَكَّىٰ" kalimasi xudolikni da'vo qilishdan qaytish ma'nosida kelgan deyiladi.

13. "Zakaun" "zakatun" kalimalari shar'iy zakotni ado qilish ma'nosida ko'plab o'rinlarda zikr etilgan. "كِعِينَ الرَّ مَعَ وَرَكَعُوا الزَّكَاةَ وَءَاتُوا الصَّلَاةَ وَأَقِيمُوا" "Namozni barkamol o'qingiz, zakot beringiz va ruku qiluvchilar(namozxonlar) bilan birga ruku qilingiz (namoz oqingiz)."<sup>14</sup>

Tasavvuf "qalb", "ruh", "aql", "nafs" kabi ma'nolarni alohida tushuntiradi va ularning har biriga musulmon banda qanday munosabatda bo'lishi zarurligini bayon qilib, o'sha bayonning tatbiq qilinishini ham yo'lga qo'yadi<sup>15</sup>.

"Nafs" نَفْسٌ so'zining lug'aviy jihatdan "shaxs", "o'zlik", "inson" "xohish" kabi ma'nolarni anglatadi. Istilohiy jihatdan nafs latif ruhoniy narsa bo'lib, idrok qiluvchi shar'iy hukmlarga mukallaf, jazolarga muxotob, "men" va "sen" kabilarning tasdig'idir. Shu ma'noda nafs haqiqiy inson hisoblanadi. Mutasavviflar nazdida nafsning joyi kindikning osti bo'lib, uning rangi sariq bo'ladi deyilgan.

Nafs moddiy va ma'naviy ma'nolarda qo'llaniladi, biri ikkinchisi bilan

---

<sup>11</sup> Shayx Abdulaziz Mansur. Qur'oni Karim ma'nolari tarjimasini. – Toshkent: "Toshkent islom universiteti" nashriyoti, 2001. – B. 527.

<sup>12</sup> Shayx Abdulaziz Mansur. Qur'oni Karim ma'nolari tarjimasini. – Toshkent: "Toshkent islom universiteti" nashriyoti, 2001. – B. 595.

<sup>13</sup> Shayx Abdulaziz Mansur. Qur'oni Karim ma'nolari tarjimasini. – Toshkent: "Toshkent islom universiteti" nashriyoti, 2001. – B. 584.

<sup>14</sup> Shayx Abdulaziz Mansur. Qur'oni Karim ma'nolari tarjimasini. – Toshkent: "Toshkent islom universiteti" nashriyoti, 2001. – B. 7.

<sup>15</sup> Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tasavvuf haqida tasavvur. – Toshkent: "Hilol-Nashr" nashriyoti, 2021. – B. 68.

chambarchas bog'liqdir. Moddiy ma'noda tanadagi latif bir jism bo'lib, tananing barcha moddiy ehtiyojlarini nazorat qilib, boshqarib turadi. Uning bu ishdagi asosiy quroli g'azab va shahvatdir. Bu narsalar me'yorida bo'lganda, nafs hotirjam hisoblanadi va u o'zidan talab etilgan vazifani to'g'ri bajarayotgan bo'ladi.

Nafsning talabi, g'azabi va shahvati meyoridan oshib ketsa, u yomonlikka undovchi nafs hisoblanadi va malomat qilinadi. Ma'naviy ma'noda nafs aqlga va ruhga oid barcha ehtiyojlarni nazorat qilib, boshqarib turuvchi omil, bu nafs insonning shaxsiyati, "men"ligidir. Shariatning talab va takliflari mana shu nafsga qaratilgan. Ayni paytda moddiy nafs ma'naviy nafsga tobe bo'lib, bu ikkisi insonning borlig'ini tashkil qiladi<sup>16</sup>.

Tasavvufda "nafs" lafzi ikki xil ma'noda ishlatiladi. Birinchisi - insondagi g'azab va shahvatni jamlovchi ma'noda bo'lib, bu lafzni mutasavviflar keng qo'llab kelishadi. Solikning nafsga qarshi kurashi, nafsning yolg'onlariga uchmasligi, nafsga qarshi turishi aynan yuqoridagi nafsning holatiga tegishlidir.

Ikkinchi ma'nosi - ruh deb atalmish latif jismni, ya'ni insonning joni va o'zini anglatadi. Abu Said Xodimiy Hanafiy "Bariqo muhammadiyya fiy toriqoti muhammadiya va shar'iyya nubuvviyya fiy siyroti ahmadiyya" asarida nafsga quyidagicha ta'rif beradi: "Nafs bu - men va u shariatning takliflariga mukallafdirmiz". Bu bilan olim nafs bu insonning o'zi ekanligiga ishora qiladi.

Boshqa bir ta'rifda: "Nafs latif javhar bo'lib, tiriklik, his qilish, harakat va iroda kuchini ko'tarib turuvchi omildir", "Nafs badanni yoritib turuvchi javhardir. O'lim payti uning nuri badanning zohiridan ham, botinidan ham kesiladi. Uyqu paytda esa, zohiran yo'qolsada, botini qoladi"<sup>17</sup>.

"Nafs" kalimasi Qur'oni Karimda bir necha ma'nolarda kelganligi quyidagi oyatlarda ko'rishimiz mumkin:

1. Nafsning ruh ma'nosida "An'om" surasining 93-oyatida kelgan.
2. Nafs kalimasi inson ma'nosida kelgan bo'lib, bu insonning aynan o'zi, yoki ruhini ifodalaydi. "Luqmon" surasining 27-oyatda kelgan.

---

<sup>16</sup> Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tasavvuf haqida tasavvur. – Toshkent: "Hilol-Nashr" nashriyoti, 2021. – B. 69.

<sup>17</sup> Zaynul Obidin Haddodiy Munoviy. Tavqif ala muhimmat ta'rif. – Bayrut: Dorul kutubil ilmiyya, 2018. – B. 327.  
[www.tadqiqotlar.uz](http://www.tadqiqotlar.uz)

3. Hamda, nafs kalimasi insonning aqliy quvvati ma'nosida ham "Naml" surasining 14-oyatda kelgan.

4. Qalb ma'nosida "A'rof" surasining 205-oyatida zikr etilgan.

5. Yaxshilik va yomonlik qiladigan kuch ma'nosida "Qof" surasining 16-oyatida, "Naziat" surasining 40-41-oyatlarida zikr etilgan.

Qur'oni Karimda nafsning uch sifati berilgan bo'lib, ular **النَّفْسُ الْمُطْمَئِنَّةُ** "nafsi mutmainna", **النَّفْسُ اللَّوَّامَةُ** "nafsi lavvoma", **النَّفْسُ أَمَّارَةٌ بِالسُّوءِ** "nafsi ammora" dir.

Nafs darajalarining eng avvalgisi "nafsi ammora" bo'lib, nafsning bu turi "yomonlikka buyiruvchi nafs" deb ataladi. O'z navbatida nafs ammora ham ikkiga, ya'ni **النَّفْسُ الْحَيَوَانِيَّةُ** "nafsi hayvoniyya" va **النَّفْسُ الْإِبْلِسِيَّةُ** "nafsi iblisiyya" ga bo'linadi. Nafsi hayvoniyya faqat moddiy dunyoga bog'langan, hayvoniyl shahvatlar va hissiy rohatlanishlarga berilgan nafsdir. Nafsi iblisiyya esa, nafs hayvoniyyadan ham pastroq bo'lib, o'z nafsini sevishi yo'lida Allohga qarshi chiquvchi nafs deb ta'riflanadi.

Nafsning ikkinchi turi **النَّفْسُ اللَّوَّامَةُ** "nafsi lavvoma" malomat qiluvchi nafsdir. Nafsning bu darajasida nafs o'z-o'zini malomat qilib, uyg'otib turadi. Bu darajadagi nafs qalbni eshitishni boshlaydi, aqlga suyanadi, o'z zaifliklarini ko'rib, komillikka intiladi.

Qur'onda zikr qilingan nafsning uchinchi turi "nafsi mutmainna" dir. Nafsi mutmainna zikr qilingan Fajr surasi 27-oyati "Ey, xotijam nafs" ning sharhida Sulamiy quyidagilarni keltiradi: "Qosim bu oyat borasida shunday dedi: "Ey, Haqqa bog'langan nafs! Xotirjam bo'l, Alloh senga qazo-qadaringga bitgan narsaga rozi bo'l. Seni bu ulug' ziynat bilan ziynatlagan Zotga qayt". Junayd: "Nafs mutmainna haq bilan liboslanadi va hidoyat bilan sifatlanib, nafs lavvomaga aylanadi". Ibn Ato: "Nafs mutmainna Allohga orif bo'lgan holda ko'z ochib yumguncha Allohdan uzilmaydigan nafsdir"<sup>18</sup>.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirganda, nafs ma'naviy ma'noda aqlga va ruhga oid barcha ehtiyojlarni nazorat qilib, boshqarib turuvchi omil bo'lib, ushbu nafs insonning shaxsiyati hisoblangan "men"ligidir. Shariatning talab va takliflari mana shu

---

<sup>18</sup>Abu Abdurahmon Sulami. Haqiqiqt tafsir. – J. 2. – Bayrut-Livan: Darul kutub ilmiyya, 2001. – B. 156.

nafsga qaratilgan. Nafsning tabiati yaratilishiga ko'ra yomonlikka buyuruvchi bo'lgani uchun uni tarbiyalab kamolotga yetkazish bilan "tazkiyatun nafs" ilmi shug'ullanadi. Insonning kamolotga yetishi yo'lida "nafsini poklashi" nafsning tabiati hisoblangan ammoraliq (yomonlikka buyuruvchi) holatidan turli ma'naviy bosqichlar orqali o'tib, komil inson darajasiga chiqish jarayoni nazarda tutiladi. Nafsning ma'nolariga va unga doir masalalarni o'rganishda chuqur ketish, insonni "ruh" ilmiga kirishib, uni kashf qilishga harakat qilishga urinish bo'lib qolgani uchun chuqur kirishmagan afzal.

**Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati:**

1. Ibn Usmon Amr ibn Muhammad Johiz. Tahzibul axloq. – Bayrut: "Dorus sahoba lit turos", 1989.
2. Shayx Abdulaziz Mansur. Qur'oni Karim ma'nolari tarjimasi. – Toshkent: "Toshkent islom universiteti" nashriyoti, 2001.
3. Shayx Abdulaziz Mansur. Qur'oni Karim ma'nolari tarjimasi. – Toshkent: "Toshkent islom universiteti" nashriyoti, 2001.
4. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Tasavvuf haqida tasavvur. – Toshkent: "Hilol-Nashr" nashriyoti, 2021.
5. Zaynul Obidin Haddodiy Munoviy. Tavqif ala muhimmat taorif. – Bayrut: Dorul kutubil i'limiyya, 2018.
6. Abu Abdurahmon Sulami. Haqiqut tafsir. – J. 2. – Bayrut-Livan: Darul kutub ilmiyya, 2001.